

MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING RADIF QO'LLASH MAHORATI**Shomurodova Marjona Oybek qizi**

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Gmail: marjonashomurodova879@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.11397237>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakili Muhammadniyoz Nishotiy "Devon"i tarkibiga kiritilgan aksariyat g'azallarida qo'llangan radiflar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Maqola davomida radif turlariga misollar keltirilgan. Muhammadniyoz Nishotiyning radif qo'llash mahoratiga urg'u berilib, radif xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: g'azal, radif, qofiya, devon, izofiy birikma, ohangdorlik.

НАВЫКИ МУХАММЕДНИЯЗА НИШОТИ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ РАДИФА

Аннотация. В данной статье рассказывается о радифах, используемых в большинстве газелей, входящих в «Девон» Мухаммаднияза Нишоти, яркого представителя узбекской классической литературы, и их характеристике. Примеры типов radif приведены на протяжении всей статьи. Особое внимание было уделено мастерству Мухаммаднияза Нишоти в использовании радифа и предпринята попытка раскрыть характеристики радифа.

Ключевые слова: газель, радиф, рифма, диван, изофическое сочетание, мелодичность.

MUHAMMEDNIYAZ NISHATI'S SKILL IN USING RADIF

Abstract. This article talks about the radifs used in most of the ghazals included in the "Devon" of Muhammadniyoz Nishoti, a bright representative of Uzbek classic literature and their characteristics. Examples of radif types are given throughout the article. Emphasis was placed on Muhammadniyaz Nishoti's skill in using the radif and an attempt was made to reveal the characteristics of the radif.

Key words: ghazal, radif, rhyme, divan, izophysical combination, melodiousness.

O'zining hassos nazmiy asarlari bilan o'zbek mumtoz adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Muhammadniyoz Nishotiyning o'z davrida ancha yetuk shoir bo'lgani ma'lum. Darhaqiqat, shoir lirikasi bilan tanishar ekanmiz, g'azallarning badiiy jihatdan mukammalligiga, ifoda usulining o'ziga xosligiga va ohoriy tashbehlarni mahorat bilan qo'llay olganligiga guvoh bo'lamiz. Quyida Nishotiyning g'azallaridan misollar keltirgan holda, ularning mazmuniy va shakliy jihatlariga

e'tibor qaratamiz hamda shoirning radif qo'llash mahorati haqida so'z yuritamiz.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda radif qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z va so'z qo'shilmasidir. "Radif she'rda ifodalanayotgan yetakchi fikrni takrorlash, kitobxon e'tiborini asosiy g'oyaga jalb etib, muallif badiiy niyatini chuqurroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Mumtoz she'rshunoslikda radif qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. Shams Qays Roziyning "Almo'jam", Nosiruddin Tusiyning "Meyor ul-ash'or" va Abdurahmon Jomiyning "Risolayi qofiya" asarlarida radif forsiy she'riyatga xos bo'lib, arablarda qo'llanilmaganligi ta'kidlanadi". Biroq Sharq mumtoz shoirlari radifdan o'z lirik asarlarida anchayin unumli foydalanishgan. Hatto, Alisher Navoiy lirikasining yarmidan ko'p qismi radifli g'azallar hisoblanadi. Garchi radifning qo'llanilishi majburiy bo'lmasa-da, biroq klassik ijodkorlar o'z lirikasining katta qismida radif qo'llashga ahamiyat berishgan. G'azal nomlari ham, odatda, uning radifi bilan nomlangan.

Nishotiy lirikasi, xususan, shoir "Devon"i tarkibiga kirgan qariyb, qirqaqa yaqin g'azallarning katta qismi aynan radifli g'azallar hisoblanadi. Shoir o'z g'azaliyotida, asosan, bir va ikki so'zli radiflardan foydalangan:

Bir so'zli:

Yo Rab, o'lg'aymuki, kelgay jong'a jonon mujdasi,

Tuproq o'lg'on tang'a ya'ni gavhari jon mujdasi.

Baytda lirik qahramon bevosita Allohga murojaat qilib, agar "jonga" (oshiqqa) yorning xabari kelsa, bu uning tuproq bo'lgan taniga qayta hayot ato etadi. Negaki oshiq uchun yor jon gavharidek juda aziz va qadrlidir. Bir qarashda ishqiy mavzudagi ushbu bayt zamirida tasavvufiy g'oyalar mujassam. Radif sifatida tanlangan so'z esa shoir aytmoqchi bo'lgan fikrni yanada aniqroq yetkazish uchun xizmat qilgan.

Ikki so'zli:

Nozananim, qaddu raftoringga qurbon o'layin,

So'zlagil noz ila, guftoringga qurbon o'layin.

Mazkur baytda radif sifatida qo'shma fe'l tanlangan. Radif orqali oshiq kechinmalariga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, "qurbon bo'lmoq" fe'lini "qurbon o'lmoq" shaklida ishlatish g'azalni xalq jonli tiliga yanada yaqinlashtirib, ohangdorlikni ta'minlagan.

Biz Muhammadniyoz Nishotiy lirikasi bilan tanishar ekanmiz, ularda radiflar, asosan, ikki vazifada qo'llanilganligini kuzatishimiz mumkin.

1) G'azallar ma'nosi uchun xizmat qiladigan radiflar;

2) G'azallar ohangdorligi uchun xizmat qiladigan radiflar.

Dastavval, g'azallar ma'nosi uchun xizmat qiladigan radiflarga to'xtaladigan bo'lsak, agarda, g'azal baytida radif vazifasini o'tovchi so'z tushirib qoldiriladigan bo'lsa bayt mazmuniga

sezilarli putur yetadi. Misol uchun, Nishotiy qalamiga mansub quyidagi baytlarga e'tibor qaratamiz:

Javhari jon lahjayi gavhar fishoning sadqasi,

Bulbuli dil g'unchayi gulshan bayoning sadqasi.

Ushbu baytda "sadqa" so'zi qurbon bo'lish ma'nosini bildirib, oshiqning yorga bo'lgan cheksiz muhabbati shu so'z orqali yuzaga chiqqan. Agarda radif tushirib qoldirilsa, baytdan hech qanday ma'no anglashilmaydi. Yana bir baytda ayni shu holni ko'ramiz:

Soldi jonimg'a gireh, ey sho'x, pechon kokiling,

Etti savdoyi dimog'im anbarafshon kokiling.

Bunda ham asosiy ma'no va urg'u "kokiling" so'ziga tushgan bo'lib, misralarda "kokiling" so'zi radif, "pechon", "anbarafshon" so'zlari qofiyadoshlikni ta'minlagan. Shoir oshiq timsolida ma'shuqasiga murojaat qilib, yorning "pechon kokil" (o'rilgan soch)lari tufayli oshiq joniga "gireh" (tugun, kishan) solingani, sochlarining "anbarafshon" (xushbo'y) ligi esa oshiq dimog'iga yetib, uni "savdoyi" (devona, telba) qilganidan shikoyat qiladi. Bunday radif turiga yana bir misol Nishotiyning "Noz" radifli g'azalida ham ko'rinadi:

Zulfin etmish ul pari jon bo'ynig'a qullobi noz,

Jon salomatkim qutorsun, gar budur asbobi noz.

Mazmuni:

Ul pari (ma'shuqa) zulfini jon bo'yniga "qullobi noz" noz changagi qilmish, agar "asbobi noz" (noz sababi) shu bo'lsa, jon salomatligida uni "qutorsun" ("qutqarsin ma'nosida").

Ushbu baytda shoir radif (noz) va qofiyadosh so'zlar (qullob, asbob)ni izofiy birikma ("qullobi noz", "asbobi noz") tarzida qo'llaydi. Bu esa baytda radifning mazmuniy o'rnini yanada mustahkamlagan bo'lib, uni bayt misralaridan olib tashlash ma'no va shakl jihatidan mutlaqo mumkin emasligini ko'rsatadi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, g'azallar ma'nosi uchun xizmat qiluvchi radiflar g'azal misralarida ham ohangdorlik, ham mazmuniy tugallik bo'lishi uchun ham xizmat qiladi.

G'azal radiflarining baytdagi tutgan o'rni va vazifasi yuzasidan yana boshqa bir turi g'azal ohangdorligi uchun xizmat qiladigan radiflardir. Ya'ni, bu xildagi radiflar faqat ohangdorlik vazifasi bilan kifoyalanadi. Bunday radiflarni g'azal baytidan olib tashlash misra mazmuniga yoxud fikriy tugallikka sezilarli ta'sir etmaydi. Masalan:

Bog' sayrig'a xirom etgan falon jonmu ekan?

Yo shafaqgun chodir ichra mohi tobonmu ekan?

Mazmuni: Bog' sayriga qadam ranjida etgan "falon" (shunday bir) jon (ma'shuqaga

ishora)mi ekan, yo “shafaqgun” (shafaqrang, qizg‘ish) chodir ichra “mohi tobon” (yorqin, nurli oy)mi ekan?

Shoir mazkur baytni so‘roq tarzida yozgan bo‘lib, baytda qofiyadoshlikni “jon”, “tobon” so‘zlari yuzaga keltirsa, radif vazifasini “ekan” so‘zi bajaradi. Agar baytning radifi olib tashlangan taqdirda, ohangdorlik darajasi kamaysa ham, baytning asosiy mazmuni o‘zgarishsiz qoladi. Ushbu holatni Nishotiy ijodidan yana bir bayt keltirish orqali aniqroq tushuntirishimiz mumkin:

Bo‘lmisham, ey gul, asiri chashmi fattoning *saning*.

Vola qildi aqlni zulfi parishoning *saning*.

Mazmuni: Ey gul, sening “chashmi fattoning” (fitna soluvchi ko‘zlaring) ning asiri bo‘lmishman. Sening “parishon” (yoyilgan) zulfing aqlni “vola qildi” (maftun etdi).

Ushbu baytda “saning” so‘zi radif vazifasin bajargan bo‘lsa, “chashmi fattoning”, “zulfi parishoning” so‘zlari qofiyadoshlikni ta‘minlagan. Agar baytda radif vazifasini o‘tagan “saning” so‘zi olib tashlansa ham, qofiyadosh so‘zlar (fattoning, parishoning) tarkibidagi egalik qo‘shimchasi (-ing) orqali ham tugal ma‘no anglashilgani holda bayt mazmuniga putur yetmaydi.

G‘azallar radifi bilan bog‘liq bu kabi misollarni mumtoz shoirlar, xususan, Muhammadniyoz Nishotiy ijodida ham ko‘plab uchratish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, g‘azaliyotda radifni shaklan va mazmunan to‘g‘ri tanlash, uni ma‘no va ohang jihatidan o‘rinli qo‘llay bilish, shoir ijodiy mahoratining yaqqol dalilidir. Yuqorida keltirilgan va tahlilga olingan misollar shoir o‘z lirikasida radifning bir qancha turlaridan unumli foydalanganini tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Devoni Nishotiy. Qo‘lyozma. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi Qo‘lyozmalar fondi. No.156.
2. Nishotiy. Husn va dil. Doston. She‘rlar. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
3. Nishotiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: O‘z.SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.
4. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967.
5. Recai Kiziltunç. Muhammed Niyaz Nisati. DIVAN. – Ankara: Fenomen yayincilik, 2019.